



OILA HUQUQI SOHASIDA HUQUQIY TEXNOLOGIYALARNI TARTIBGA SOLISH: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILA KODEKSI TAHLILI VA DANIYA RAQAMLI YECHIMLARI

Musayeva Farangiz

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, Xalqaro huquq va qiyosiy
huquqshunoslik fakulteti, 1-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17646616>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 19-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

*raqamli texnologiyalar, elektron
ajrim, aliment uchun smart
kontraktlar, qiyosiy huquq,
digitalizatsiya paradokslari.*

ABSTRACT

*Ushbu maqola oilaviy-huquqiy munosabatlarda
raqamlashtirilgan texnologiyalarning asoslarini
O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligi va
Daniyaning rivojlangan modeli asosida tahlil qilib
chiqadi. Tadqiqotda, oila kodeksining qiyosiy analizlari
va Daniyaning to'liq avtomatlashtirilgan e-Governance
tizimi muhokama qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda
oilaviy normalarni texnologik rivojlangan davlatlar
kabi avtomatlashtirishga moslashuvchanligini oshirish
uchun ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.*

Zamonamiz jadal rivojlanib borgan sayin huquqiy texnologiyalar inson hayotining ba'zi jabhalarida muhim o'rinlarni egallay boshladi. Xususan, O'zbekistondagi raqamli identifikatsiya va sud jarayonlarini raqamlashtirish kabi tizimlar fuqarolarning protsessual huquqlarini samarali amalga oshirishga ko'maklashishda muhim ahamiyat kasb etyapti. Shuningdek, huquqiy texnologiyalar bilan yuridik yordam ko'rsatish orqali insonlarning hayotini yengillashtirish va qog'ozbozlikni kamaytirishga ham katta e'tibor qaratilayotgani ma'lum. Ammo, yuridik sohada zamonaviy texnologiyalarni va tendensiyalarni implementatsiya qilish doimo kritik nuqta bo'lib kelgan. Ya'ni, aynan oila huquqida oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari, homiylik mavzusi va er-xotin o'rtasidagi umumiy va shaxsiy mulk masalalari bu jarayonni sekinlashtiruvchi omil sifatida tan olinadi. Bundan tashqari, har bir shaxsning huquq kafolati va ma'lumotlar xavfsizligi masalasidagi normativ to'siqlar fuqarolarda avtomatlashtirilgan tizimga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirib boryapti. Ammo, ba'zida digitalizatsiya paradokslari kutilganidan ham ko'proq foyda keltirishi mumkin. Masalan, bolalar uchun yaratilgan onlayn ta'lim platformalari, onlayn nikoh, farzand tug'ilishini ro'yxatga olish tizimlari, masofaviy nikohdan ajratish jarayonlari texnologik rivojlangan davlatlarda inson resurslarini saqlab qolmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston va Daniyaning oila qonunchiligiga texnologiyalarni joriy etish sistemasi bir-biriga ko'p jihatlar bilan bog'liq. Ikkalasi ham byukrotratiyani kamaytirish, huquqiy ximatlarni onlayn tizimga o'tkazish, ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish maqsadida takomillashmoqda. Biroq, Daniyada texnologiyalarni joriy etish bo'yicha rivojlangan namunaviy tizim bor, O'zbekiston esa hali bu sohada tajriba orttirib, ma'lumotlar bazasini shakllantirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida oila qonunchiligi raqamlashtirishning dastlabki bosqichlarida hisoblanadi. Barcha oilaviy-huquqiy munosabatlar asosan imperativ me'yorlar ustuvorligiga tayanadi. Bu yondashuv, oilaviy munosabatlarga oid huquqiy tartibotni bosh qomus hisoblanmish Konstitutsiya, Oila kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari orqali tartibga solinishini anglatadi. Oila kodeksi mustaqillik davrida qabul qilinganligi tufayli unda ko'pincha an'anaviy munosabatlar tilga olingan va elektron raqam, onlayn smart kontrakt kabi zamonaviy tushunchalar yetarlicha yoritib berilmagan. Chunki hozirda nafaqat oila qonunchiligida, balki barcha sohalarda yurtimizda texnologik adaptatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Buning asosiy murakkabliklaridan biri, aholi o'rtasida texnologik-huquqiy savodxonlik ya'ni raqamli inkluziyaning yetarlicha rivojlanmaganligi hamda texnik bazaning shaxsiy ma'lumotlarning tahlil qilish funksiyasi samarali ishlamayotganligi hisoblanadi. Rasmiy statistikaga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda qayd etilgan nikohlar soni 283 mingdan oshgan. Ajralishlar soni esa shu yilda yakka tartibda 45-50 mingni ko'rsatgan. Bu raqamlar so'nggi 5 yillikda ajralishlar soni nikohlarnig soniga qaraganda ko'pligini, ajralish va nikoh jarayonlarining soddalashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni tatbiq qilish taklif emas, zaruratga aylanganligini ko'rsatadi. Nikoh tuzish, nikoh shartnomasi, nikohdan ajratish uchun arizalarni qabul qilish bo'yicha O'zbekistonda gibril yondashuv mavjud: fuqarolar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga yo sudlarga murojaat qilish huquqiga egalar. Shu bilan birga, dastlabki arizalar uchun zamonaviy ma'muriy-informatsion xususiyatga ega bo'lgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yaqinda ishga tushirildi. Bu portalning afzalligi shundaki, unda shaxsiy ma'lumotlar elektron identifikatsiya orqali autentifikatsiya qilinadi va fuqarolar arizalarini tez va qulay to'ldirishlari uchun imkoniyatlar yaratiladi. Ammo, bu tizimdan foydalanish uchun fuqaro shaxsini One-ID yagona identifikatsiya tarmog'i orqali tasdiqlasada, so'rovning rasmiylashtiruv bosqichida shaxsiy ishtirokni talab qiluvchi yuridik aktlar texnologik imkoniyatlardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qiladi. One-ID-fuqarolarning davlat xizmatlaridan onlayn tarzda foydalanishini soddalashtirish maqsadida ishlab chiqilgan elektron hukumat infratuzilmasi bo'lib, raqamli boshqaruv tizimining markaziy elementi hisoblanadi. Bu tizim, MitID tuzilmasi kabi to'liq integratsiyalashmaganligi tufayli „Raqamli O'zbekiston-2030“ konsepsiyasi ostida mutaxassislar tomonidan uning ko'lamini yanada kengaytirish va taklif etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishi kutilmoqda. Mavzuga qaytadigan bo'lsak, Oila kodeksining 42-moddasida ta'kidlanishicha, er-xotin o'rtasida farzand bo'lmagan hollarda yoki biror mulkiy nizo bo'lmagan taqdirda, ular FHDY organi orqali kamida 3 oy muddat ichida ajrashishlari mumkin. Biror mulkiy nizo paydo bo'lganda yoki taraflardan biri norozi bo'lgan taqdirda yarashish muddati yana ko'proq vaqtga cho'zilish ehtimoli bor. Lekin, hali hamon ajrim masalasi bo'yicha raqamli texnologiyalar joriy etilmagan. Yarashib olish uchun beriladigan muddat ham protsessual jihatdan baholanganda, texnologik samaradorlikni cheklovchi unsurlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ajrim jarayonining to'liq avtomatlashtirilmaganligining asosiy sabablaridan biri, E-imzo hali ham an'anaviy imzo bilan bir xil daraja va xavfsizlikka ega emas. Elektron imzo - elektron hujjatlarni raqamli shaklda imzolash va uning shaxsini qonuniy jihatdan tasdiqlash imkonini beruvchi huquqiy himoya vositasidir. Bu tizim asosan „Elektron raqamli imzo to'g'risidagi“ qonun asosida tartibga solinadi. Sud tartibidagi ajrim ishlarida esa, ajrashish protsessi juda murakkab. Fuqarolik protsessual kodeksiga ko'ra, tomonlar protsesning barcha bosqichlarida shaxsan

ishtirok etishi, nizo bo'yicha to'plangan dalillarning qog'oz shaklida taqdim etilishi va sudyaning qarorni erkin chiqarishi tanlovi kengligi sababli E-Sud tizimi tezlik va samaradorlik jihatidan instutsional dissonansni boshdan kechirmoqda. Qo'shimcha tarzda shuni aytishim mumkinki, texnologik ilg'or mamlakatlardagi kabi onlayn smart kontraktlarni O'zbekistonda joriy etish, juda ko'p vaqt va mablag' talab etishi barchaga ayon. Chunki, birinchidan, oila qonunchiligida bu mexanizm uchun fundamental huquqiy asoslar mavjud emas. Ya'ni, elektron shakldagi nikoh yoki onlayn nikoh shartnomalarining tan olinishi masalasi yoki ularning yuridik kuchga ega emasligi oila sohasidagi noaniq huquqiy maydonni oshkor qilib qo'ymoqda. Ikkinchidan, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi ham bugungi kundagi eng dolzarb mavzulardan biri. Oilaviy-huquqiy munosabatlar o'z ichiga inson hayotidagi eng maxfiy va himoyani talab qiluvchi ma'lumotlar(farzand asrab olish, mulk taqsimoti haqidagi kelishuvlar, nikoh shartnomasi va hokazolar)ni olgani uchun yuqori darajadagi texnologik mexanizmlarni qo'llash zarur. Xususan, ma'lumotlarni shifrlash, himoyalangan serverlar va ikki bosqichli autentifikatsiya tizimlarning to'liq shakllanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Daniya Qirolligi oila huquqi munosabatlarini elektron tarzda tartibga solish va rivojlantirish bo'yicha global etalon hisoblanadi. Bu davlat nafaqat yuridik texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha, balki zamonaviy dunyoda raqamli konsepsiyalarni yaratish bo'yicha ham har tomonlama boshqa mamlakatlarga amaliy namuna bo'lib kelmoqda. Bu ulkan muvaffaqiyatning siri e-Governance(elektron hukumat) va Digital-First(birinchi o'rinda raqamli ustuvorlik) prinsiplarini amalda to'g'ri qo'llanilganligida hisoblanadi. Elektron hukumat va raqamli ustuvorlik prinsiplari nima uchun muhim ahamiyat kasb etadi? Chunki, aynan shu prinsiplar mamlakatda korrupsiya xavfini kamaytirishda, davlat xizmatlarini onlayn shaklda taqdim etishda va fuqarolar uchun interaktiv boshqaruv imkoniyatini yaratishda asosiy turtkilardan biri bo'ladi. Oila qonunchiligi tizimining huquqiy negizini 2019-yilda qabul qilingan Oila huquqi to'g'risidagi qonun tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi ka'bi Denmarkning Oila huquqi to'g'risidagi qonuni ham gender tenglik, bolalarning eng yaxshi manfaatlari uchun harakat, nikoh va ajrimning erkinligi mavzularini to'liq yoritib beradi. Umumiy olib qaraganda, Oila kodeksi- byurokratik, inson aralashuviga tayanadigan klassik huquqiy modelni, Daniya qonuni esa avtonom va texnologik tezkor raqamli-huquqiy modelni ifodalaydi. Hujjatlar o'rtasidagi asosiy farq- ularning normativ shaklidir. Daniyada qonunlar kodeks shaklida ifoda etilmaydi va har bir soha bo'yicha bir nechta hujjatlar qabul qilinadi. Masalan, Nikoh to'g'risidagi qonun, Ota - onalik ma'suliyati to'g'risidagi qonun, Farzandlikka olish to'g'risidagi qonun shaklida. Oilaviy ishlarning aksariyati Familieretshuset nomli oila huquqi agentligi tomonidan ma'muriy tarzda hal etiladi. Bu agentlik orqali nikoh tuzish va ajratish, bola tug'ilishi yoki asrab olinishi, aliment, homiylik masalalari ariza berishdan tortib, so'rov bo'yicha professionallardan maslahat olishgacha onlayn tarzda amalga oshiriladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Daniyada 90% dan ortiq ajrimlar aynan shu onlayn sistema orqali amalga oshiriladi. Eng qiziqarli tarafi shundaki, bu masalani yechish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekistondagi muddatdan farqli ravishda 1 kundan 4 haftagacha bo'lgan vaqtda ko'riladi. Bu avtomatlashtirilgan tizimga kirish raqamli shaxsiy identifikatsiya tarmog'i bo'lmish MitID orqali amalga oshiriladi. MitID O'zbekistondagi One-ID, E-imzo tizimlariga funksional jihatlari bilan o'xshab ketadi va u orqali nafaqat davlat xizmatlari, balki bank va moliyaviy xizmatlar

ham amalga oshiriladi. Garchi bu takomillashgan tizim deyarli mukammal yaratilgan bulsada, transchegaraviy muammolar va keksa yoshli aholining qo'shimcha yordamga ehtiyoji bazi qatlamlarga muammolar tug'dirmoqda. Chet ellik fuqarolar nikoh qurish yoki tugatish vaqtida, boshqa davlat qonunlari bilan bu tizim o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bu kabi texnologiyalar raqamli qurilmalarga bog'liq bo'lganligi tufayli qariyalar ko'pincha shaxsiy yordamga muhtoj bo'ladilar. Aliment majburiyatlarini ijro etish bo'yicha so'z yuritadigan bo'lsam, har bir aliment to'lovchining oylik ish haqi, soliqlari va ijtimoiy to'lovlari haqidagi ma'lumotlar iqtisodiy bazalardan avtomatik tarzda olinadi. Ya'ni aliment miqdori davlat tomonidan elektron shaklda yechib olinadi. Bu mexanizm smart kontraktning funksional tamoyillariga mos ravishda faoliyat yuritadi. Agar aliment to'lovchi o'z majburiyatini bajara olmay qolsa, Udbetaling Danmark agentligi o'z hisobidan mablag' ajratadi va keyinchalik, ko'rilgan zararni to'lovchidan ma'lum bir muddat ichida yig'ib oladi. Bu sistema aholi o'rtasidagi muvozanatni va ijro samaradorligini keskin ravishda oshirishga xizmat qiladi. Huquqiy jihatdan, bunday avtomatlashtirilgan tizimlarda fuqarolarning shaxsga doir biometrik ma'lumotlari sizib chiqishining xavfi juda yuqori. Lekin, Daniya qonunchiligi, GDPR - Yevropa Ittifoqining ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti talablariga to'liq muvofiq tarzda avtomatlashtirilgan. Reglamentda ta'kidlanishicha, aliment to'lovi uchun mo'ljallashtirilgan raqamli operatsiyalar maqsadga yo'naltirilganlik va ma'lumotlarni minimallashtirish kabi prinsiplarni asosiy qoida sifatida tan oladi. Shaxsga doir ma'lumotlarning sir tutilishi kafolatiga kelsak, aholi tomonidan amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalar kriptografik tarzda qat'iy himoyalangan bo'ladi va ularning roziligisiz uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi. Aslini olganda, Daniya smart kontrakt prinsiplarini, mashhur sanalgan blokcheyn orqali emas, balki ijro hokimiyatining samaradorligini oshirish va huquqiy texnologiyalar bilan integratsiya qilish yo'llari orqali, texnologiyalar inson hayotini yengillashtirishini yana bir bor isbotladi.

Mamlakatimizda ham boshqa rivojlangan davlatlar kabi oilaviy-huquqiy munosabatlarni raqamlashtirishda ishonchli va adolatli huquqiy tizimni joriy etish va mavjud to'siqlarni bartaraf etish uchun bir qancha ilmiy takliflarni ishlab chiqdim:

1. „Raqamli oila huquqi to'g'risidagi“ maxsus qonunni ishlab chiqish.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha oilaviy munosabatlarga bog'liq texnologik ma'lumotlarning 65%i elektron tizimlar orqali qayta ishlanadi, ammo shu ma'lumotning atigi 35%i yuqori himoya mexanizmlariga ega. Shuningdek, oila kodeksida zamonaviy huquqiy nazariyalar deyarli yoritilmaganligi va raqamli huquqiy munosabatlar uchun maxsus normativ asos bo'lmaganligi sababli ba'zi yuridik muammolarni hal etish uchun mustaqil milliy qonun zarur. Bu maxsus qonun, nafaqat xalqaro huquqiy standartlarga mos hujjat bo'lishi, balki, davlat va fuqarolar o'rtasidagi raqamli yuridik majburiyatlarni aniqlab berishi lozim.

2. Yagona raqamli oila platformasini yaratish.

Masalan, Estoniya(X-Road tizimi) va Janubiy Koreya(e-Korea) va Daniya(Digital Family Register) davlatlarida shu kabi raqamli oila boshqaruv tizimlari aholiga huquqiy jarayonlarni uydin chiqmasdan turib hal etish imkonini bergan. O'zbekiston ham milliy xususiyatlarga ega bo'lgan yagona ma'lumotlar bazasini yaratishi davlat organlari o'rtasidagi hujjat almashinuvini ta'minlashda va inson omilini kamaytirishda muhim qadamlardan biri bo'ladi deyish mumkin.

Shu bilan birga, bunday mexanizmlar nikoh, ajrim, aliment va vasiylik institutlariga oid ma'lumotlarni yagona raqamli muhitda birlashtirib turish xususiyatiga ega hisoblanadi.

3. Smart kontrakt asosida aliment to'lovlarini avtomatlashtirish.

Smart kontrakt - bu shartnomaning ma'lum bir shartlarini avtomatik tarzda bajarish imkoniyatini taqdim etadigan dasturiy algoritm. Bu turdagi zamonaviy shartnomalar, asosan blokcheyn texnologiyalari orqali boshqariladi. O'zbekiston ham o'zining Milliy to'lov tizimi va „Uznex“ blokcheyn tarmog'ini uyg'unlashtirgan holda shunday modelni joriy etishi huquqiy-texnologik muammolar uchun eng innovatsion yechimlardan biri bo'lishi mumkin. Aliment to'lovlarini fuqaroning bank hisobini va ish haqini hisoblab chiqqan holda avtomatik ushlab qolish orqali kechikish va to'lamaslik holatlarining oldini olsa bo'ladi.

4. Shaxsiy ma'lumotlar va kiberxavfsizlikni himoya qilish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan mexanizmlar muvaffaqiyatli ishlashi uchun eng muhim shart - inson ma'lumotlarining xavfsizligidir.

O'zbekistondagi „Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi“ qonun talablarini amaliy jihatdan kuchaytirish va uni biometrik xavfsizlik, ma'lumotlarni qayta yig'ish tamoyillariga moslashtirish kerak. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha global standart sifatida 2018-yilda Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti qabul qilingan. Oila huquqida bu reglament raqamli siyosat davrida fuqarolarning shaxsiy hayoti va sha'nini ta'minlashning muhim kafolati hisoblanib, onlayn sud, elektron ajrim va aliment tizimlarini maqsadga yo'naltirilganlik va shaffoflik prinsiplari asosida rivojlanish sari olib boradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, oila huquqida raqamli transformatsiyalarni amalga oshirish - inson huquqlarini himoya qilish, adolatli davlatni yaratishga imkoniyat berish va fuqarolik ishonchini mustahkamlashga qaratilgan chuqur yangilanish jarayonidir. O'zbekiston uchun bu mavzu juda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki xalqaro tajribalar Estoniya, AQSH kabi davlatlarda raqamli oila boshqaruvi faqatgina yaxshi natijalarga sabab bo'layotganini ko'rsatmoqda. Bizning yurtimiz ham bu yo'lda o'zining milliy qadriyatlariga tayangan holda, smart kontraktli aliment tizimi, texnologik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan mukammal qonun va shaxsiy ma'lumotlarni to'liq himoya qila oladigan tizim yarata olsa yangi huquqiy bosqichga o'tgan bo'ladi. Demak, jamiyatning eng asosiy institutlaridan biri bo'lmish oila huquqida raqamli inqilob- inson va texnologiya o'rtasidagi yangi muvozanat yaratadigan kelajak poydevoridir. U hozirgi qonunlarni yoki tizimni emas, balki kelajak avlodlarning huquqiy tafakkurini adolat, ishoch va insoniylik tuyg'ulari bilan yangilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi(1998). <https://lex.uz/docs/104720>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/20596>
3. „Elektron raqamli imzo to'g'risidagi“ qonun. <https://lex.uz/docs/180089>
4. „Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi“ qonun. <https://lex.uz/docs/4873458>
5. „Raqamli O'zbekiston-2030“ konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/5013014>
6. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali(YIDXP). <https://my.gov.uz/>
7. One-ID yagona identifikatsiya tizimi. <https://oneid.uz>
8. Familieretshuset- Daniya oila agentligi. <https://familieretshuset.dk/>
9. MitID- Daniyaning raqamli identifikatsiya tizimi. <https://mitid.dk>

10. General Data Protection Regulation(Europian Union). <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>
11. IBM Blockchain Library. <https://www.ibm.com/topics/blockchain>
12. Ethereum Foundation Documentation.
<https://ethereum.org/en/developers/docs/smart-contracts/>
13. O`zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti. <https://stat.uz/>

